

BOSHLANG‘ICH SINFLAR UCHUN MUSTAQIL SO‘ZLAR. OT SO‘Z TURKUMINING TARIFI TASNIFI, MA‘NOVIY TURLARI

Tursunov Jaxongir Panjixonovich

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi

kafedrasi o‘qituvchisi

jakhongir.9613@gmail.com

Do‘siyeva Muxlisa

TerDPI Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

ANATATSIYA. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflar uchun otning qanday qo‘llay olishi va nechta mano guruhida farqlanishi mumkinligini yoritib berilgan.

KALIT SO‘ZLAR. Ot so‘z turkumi, uning tarifi tasnifi, ma‘noviy turlari, mano guruhlari.

So‘z turkumlari — tildagi so‘zlarning ularda umumiy kategorial ma‘noning (maye. otlarda predmetlik, fe‘llarda harakatholat), grammatik kategoriyalar yagona tizimining, o‘ziga xos so‘z o‘zgarish, shakl va so‘z yasaliş tiplarining, sintaktik vazifalar umumiyliğining mavjudligiga qarab ajratiladigan guruxlari (Ba‘zi adabiyotlarda "so‘zlarning leksigrammatik kategoriyalari" deb ham ataladi). Demak, so‘zlarni guruhlarga, turkumlarga ajratishda asosan ularning sintaktik, morfologik va ma‘noviy (semantik) xususiyatlarining o‘xshashligi hisobga olinadi. St. avvalo 2 asosiy guruhga bo‘linadi: mustaqil So‘z turkumlari va mustaqil bo‘lmagan. t. Birinchi guruhga o‘zbek tilida mustaqil so‘zlar, ikkinchi guruhga esa yordamchi so‘zlar, undovlar, tatslid so‘zlar va modal so‘zlar kiradi. Mustaqil so‘zlar lug‘aviy ma‘noga ega, nominativ vazifa bajaradigan, ya‘ni predmet, hodisa, belgi, harakat kabilarni ataydigan yoki unga ishora qiladigan va gapning mustaqil bo‘lagi vazifasida kela oladigan so‘zlardir.

So‘zlar jumlada egallagan pozitsiyalariga ko‘ra ham tasnif qilinishi mumkin. Gapda bir xil sintaktik pozitsiyada tura oladigan yoki bir xil sintaktik vazifa bajara oladigan so‘zlar bir So‘z turkumlariga kiritiladi. Bunda sintaktik vazifalarning yig‘indisigina emas,

balki ushbu vazifalardan har birining muayyan St. ga xoslik darajasi ham muhimdir. Bu vazifalar birlamchi va ikkilamchi turlarga bo‘linadi. Mas, o‘zbek tilida, boshqa bir qancha tillarda bo‘lganidek, ot va fe‘l turkumidagi so‘zlar o‘rni bilan ega vazifasida ham, kesim vazifasida ham kela oladi, lekin fe‘l uchun kesimlik vazifasi birlamchi, egalik vazifasi ikkilamchi hisoblanadi. Xuddi, shuningdek, otlar uchun egalik vazifasi birlamchi, kesimlik vazifasi esa ikkilamchi hisoblanadi. Har bir so‘z turkumi o‘ziga xos grammatik kategoriyalar to‘plami bilan ajralib turadi. Bu kategoriyalar (mas, otlardagi kelishik, egalik, son; sifatlardagi daraja; fe‘llardagi shaxsson, mayl, nisbat va boshqalar) har bir So‘z turkumlari dagi aksariyat suzlarga tegishli buladiki, bu narsa suzlarni turkumlarga ajratishning morfologik mezoni sanaladi.

Hozirgi maktab grammatikalaridagi St. tizimi, ya’ni suzlarni turkumlariga ajratish qad. davrlarga borib taqaladi. Mil. av. 4-asrda Aristotel St.ni 7 ga, mil. av. 5-asrda hind tilshunoslari Yaska, Panini 4 ga bo‘lganlar. Keyinroq, mil. av. 2—1-asrlarda aleksandriyalik filologlar Frakiyalik Dionisiy, Apolloniy Diskol, rimlik Varronlar aralash morfologik, semantik va sintaktik asoslarda 8 ga (otism, fe‘l, ravish, sifatdosh, artikl, olmosh, kumakchi, bog‘lovchi) bo‘lganlar. Bunda ismlar o‘z navbatida ot, sifat va son guruhlarini qamrab olgan. So‘z turkumlarining bu tizimi ma’lum darajada arab grammatik an’analariga ham ta’sir ko‘rsatgan: arablar ham fe‘ldan boshqa mustaqil suzlarni "ism" termini bilan ataydilar. Keyingi davrlarda (urta asrlar va 19—20-asrlarda) yevropa va rus tilshunosligida bu borada bir qancha tasniflar amalga oshirilgan bulsada, ular ko‘pincha aleksandriyaliklar tasnifiga tayangan holda bajarilgan. Turli tillarda St. soni va ayrim turkumlarning hajmi turlichadir. Mas, St. soni hozirgi rus tilida ko‘pincha 10 ta deb, o‘zbek tilida esa 10—12 ta deb (turli darsliklar) ko‘rsatiladi. Bular 6 ta mustakdl (ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe‘l), 3 ta yordamchi (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama) va 3 ta alohida (undovlar, taklid so‘zlar, modal so‘zlar) St. dir. St. sonining barqarorlashmaganligi kelgusida bu sohada yangi izlanishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Ot — mustaqil so‘z turkumlaridan biri. U boshqa turkumlardan bir necha belgi — xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular quyidagilardan iborat: 1) ot yasalish xususiyatiga ega: ishchi, suhbatdosh, paxtakor, bog‘bon, oshpaz, Mirzacho‘l; b) son-miqdorni bildirish xususiyatiga ega: bola — bolalar, daftar—daftarlar; v) egalik

ko'rsatkichiga ega: otam, otang, otasi — otamiz, otangiz, otalari; g) kelishik shakllari bilan o'zgaradi; maktab, maktabning, maktabni, maktabga, maktabda, maktabdan; d) gapda barcha gap bo'laklari vazifasida keladi.

Aniq, predmetlarni yoki predmet sifatida tasavvur qilinadigan tushunchalarni ifodalaydigan otlar ma'nosiga ko'ra, atoqli va turdosh otlarga bo'li-nadi. Bir xildagi predmet yoki hodisaning birini ajratib ko'rsatuvchi otlar atoqli otlar sanaladi: Rustam, Olimjon, Jomboy, Mars, Venera, Boychibor kabilar. Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi turdosh otlardir: gul, daraxt, qalam, daftar kabi.

Ot turkumi 3 xil grammatik kategoriyaga ega: 1) son kategoriyasi; 2) egalik kategoriyasi; 3) kelishik kategoriyasi.

Otning funksional shakllari mavjud bo'lib, ular ma'lum bir qo'shimcha grammatik ma'no ifodalash, otlarning kategorial shakllariga xos bo'lmagan biror sintaktik vazifasiga moslashish uchun xizmat qiladi. Otga xos funksional shaklning yasalishga ko'ra 3 tipi mavjud: 1) sintetik shakl; 2) analitik shakl; 3) juft va takror shakl. Otning sintetik funksional shakllari o'z ma'no va vazifalariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: a) kichraytish shakli (baliqcha, yigitcha, kelinchak); b) erkalash shakli (opajon, bo'taloq, qizaloq); v) hurmat shakli (onajon, opajon, dadamlar, akamlar, oyimlar); g) qarashlilik shakli (akamniki, maktabniki); d) o'rin belgisi (osmondagi, qirdagi, qishloqdagi); e) chegara shakli (uygacha, toqqacha, boqqacha); j) o'xshatish shakli (Ozodday — Ozod kabi, sizlarday — sizlar singari). Otning analitik shakli ko'makchi yordamida hosil bo'ladi: qalam bilan (da), otam uchun (-ga) kabi. Otning juft shakli umumlashtirish, jamlik ma'nolarini ifodalaydi: qozon-tovoq, qovun-tarvuz. Otning takroriy shakli ko'plik ma'nosini ifodalaydi: qatra-qatra yosh, ombor-ombor g'alla. Otlarning yasalishi natijasida yasama otlar paydo bo'ladi. Yasama otlar affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya yo'llari bilan yasaladi. Affiksatsiya ot yasashdagi eng mahsuldor usul bo'lib, uning yordamida shaxs otlari (bo'yoqchi, ishchi, maktabdosh, zargar, sholikor, saroybon, chorvador, tilshunos, etikdo'z, oshpaz, aravakash, kaptarboz, kitobxon); narsa-qurol otlari (ochqich, o'sma, to'plam, kurak, qirindi, ekin, kekirdak, suyunchi, tuzdon); o'rin-joy otlari (bodomzor, O'zbekiston, qarorgoh, ishxona, o'tloq, Paxtaobod); mavhum ma'noli otlar (yaxshilik, paxtachilik, ishonch, yig'ilish, radioeshittirish, odamgarchilik).

Kompozitsiya usuli bilan ot yasashda qo'shma otlar vujudga keladi: bilaguzuk, achchiqtosh, uchburchak, kungaboqar, olibsotar, ishlab chiqarish. Abbreviatsiya usuli bilan ot yasalganda, qisqartma otlar hosil qilinadi: BMT, SamDU, O'zME kabi. Otlar gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi, hol vazifalarida keladi. Ammo o'rni bilan sifatlovchi, izohlovchi, kesim yoki atov, vokativ ran bo'lib kelishi ham mumkin. Ot so'z turkumi. Otning ma'no guruhlari haqida. Narsa-buyum, shaxslarning nomi, atamasi bo'lgan so'zlar turkumi ot deyiladi. Otlar kim? nima? qayer? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Otlar egalik, kelishik kabi so'z o'zgartirish, turli ma'no va vazifa uchun qo'llanuvchi vazifadosh shakllarga hamda o'ziga xos so'z yasalish tizimiga egaligi bilan ajralib turadi. Otlarning muhim belgilaridan biri ularning sifat, son, olmosh, fe'l va ravish distributsiyasida kelishi, ya'ni ular bilan birika olishidir: katta bino, ikkinchi kurs, barcha inson, kitob o'qimoq, ko'p odam. Ot gapning barcha gap bo'lagi vazifasida qo'llanishi mumkin. Otning bu kabi sintaktik vazifasi uning qanday grammatik shakldaligi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, otning bosh shakli, ya'ni bosh kelishik, ko'plik yoki birlik hamda egalik shakli gapda ega, Kesim kabi vazifada keladi: O'zbekiston-mustaqil davlat. Millatim-o'zbek. O'zbekistonim-onajonim.

Mustaqil so'zlar ot turkumiga munosabati nuqtai nazardan ikki guruhni tashkil etadi: 1) ot tipidagi so'zlar. Bu guruhga otlar kabi kim? nima? so'rog'iga javob bo'lib, otga xos grammatik shakllarda bevosita qo'llana oladigan olmoshlar (men, sen, biz, har kim, nimadir), jamlovchi sonning -ov, -avlon affiksli turi (ikkov, ikkavlon), fe'lning harakat nomi shakli (o'qish, yozuv) kiradi; 2) otlashuvchi so'zlar. Bu guruhga grammatik son, egalik, kelishik shakllaridan birida qo'llanilib, muayyan matn doirasidagina ot vazifasida ishlatilishi mumkin bo'lgan sifat, son va ular o'rnida qo'llanadigan olmoshlar (qanday, qancha, nechta), ba'zi bir ravishlar, fe'lning sifatdosha shakli kiradi. Otning ma'no guruhlari. Otlar ma'no jihatdan quyidagi guruhlarga bo'linadi: Atoqli otlar. Bir turdagi narsa yoki hodisalarning birini ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladigan otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlar shaxs ismlari, havonlarning atoqli nomlari, tashkilot va geografik makon nomlari, koinot jismlari nomlari, suv havzalari, tashkilot nomlari kabi guruhlar doirasida uchraydi: Alisher, Ulug'Bek, Zarafshon, Toshkent, Samarqand, Mars Bunday atoqli otlar o'zaro tub va yasamaligi hamda tuzilishiga ko'ra farqlanishi mumkin.

2. Turdosh otlar bir jinsdagi otlarning umumiy nomini bildiruvchi otlardir. Masalan, inson, daryo, shahar, kitob, daftar. Turdosh otlar quyidagi ma'no guruhlariga mansubligi bilan o'zaro farqlanadi:

3. Aniq otlar bevosita narsa-buyum va shaxs, jon-zot anglatadigan Aniq otlar bevosita sanash va ko'rish mumkin bo'lgan otlar hisoblanadi. Masalan: kitob, talaba, daraxt, qush.

4. Mavhum otlar his qilish, sezish mumkin bo'lgan otlardir. Ular ham ko'plik affikslari bilan qo'llanmaydigan otlar bo'lib, ularga ko'plik qo'shimchasi qo'shilganda turlicha ma'no bo'yog'i yuzaga keladi. Masalan: sevgi, sezgi, qayg'u, alam, qadr, oriya.

5. Jamlovchi va yakka otlar. Bir turdagi narsaning o'zini ifodalaydigan otlar yakka otlar hisoblanadi: kitob, gul, daraxt Birlilik shaklida bo'lib, bir xil turdagi narsaning to'dasi, jamini ifodalaydigan otlar jamlovchi otlardir: xalq, armiya, ko'pchilik, poda, jamoa, o'rmon kabilar.

6. Sanaladigan otlar, sanalmaydigan otlar. Sanaladigan otlar, asosan, aniq otlardan tashkil topadi: daraxt, kitob, qalam. Sanalmaydigan otlar modda otlari, og'irlik, suyug'lik o'lchamiga xos otlar va atoqli otlardan tashkil topadi: tuproq, qum, havo, shakar, tuz, yog', guruch,

7. Bundan tashqari, tabiatan yakka bo'ladigan va juft holda uchraydigan otlar ham mavjud bo'lib, ular ham otning alohida ma'no turini tashkil qiladi. Masalan: yurak, quyosh, oy, ko'z, qosh, oyoq kabilar shular jumlasidandir.

Shuningdek, otlar kim? so'rog'i asosida shaxs hamda nima? so'rog'i asosida narsa otlariga ham ajratiladi. Otlarning bunday tasniflanishi o'zbek tilining, shu jumladan, boshqa turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatini belgilaydi. Ayni paytda bu tasnif ularning turli grammatik jarayonda ishtirokida ham o'z aksini topadi. Xususan, shaxs otlari to'liq tuslovchi affikslarni qabul qilgan holda qo'llana oladi: o'quvchiman, o'quvchisan, o'quvchimiz, o'quvchisiz. Biroq, narsa otlari (majoziy ma'nosini e'tiborga olmaganda) faqat uchinchi shaxs ma'nosidagina ishlatiladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, atoqli va turdosh otlar o'zaro ma'no jihatdangina emas, balki ba'zi grammatik xususiyatlariga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, atoqli otlar faqat birlikda qo'llanadi. Ko'plikda qo'llanganda, ular grammatik ko'plik emas, boshqa ma'no bo'yoqlarga ega bo'ladi. Shuningdek, atoqli otlar

turdosh otlarga va aksincha, turdosh otlar atoqli otlarga o‘tib turadi. Masalan: Lola-atoqli ot, ayni paytda, lola-tog‘da o‘sadigan gul ma’nosida turdosh otdir. dizel, amper, rentgen, bitner kabi otlar esa atoqli ot asosida shakllangan turdosh otlardir. Atoqli otlarning turdosh otga aylanishida –lik qo‘shimchasidan ham foydalaniladi: kattaqo‘rg‘onlik, toshkentlik, andijonlik kabi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak tilshunoslik fani ya’ni ona tili darsliklarida ko‘proq kerak bo‘ladigan mustaqil so‘z turkumlari ot haqida yoritib berdik. Har bir inson o‘z tilini mukammal bilishi lozim. Chunki, har qanday millatning milliy, madaniy merosi aynan shu tilda o‘z aksini topadi. Tildagi har bir boylukni o‘rganish, dunyo tillarini o‘rganib tahlil qilishga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbek tili davlat tili to‘g‘risida” gi qonuni 1989-yil 21-oktabr;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqegini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni;
3. O‘zbekiston Respublikasining “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”;
4. Ruzikulovna, Shabbazova D. "The Importance of Personal Value Approach Methodology in Primary School Literacy Classes." *JournalNX*, vol. 7, no. 11, 2021, pp.
5. Shabbazova, D. (2023). PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL FACTORS OF IMPROVING THE LITERACY OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS BASED ON A PERSONAL VALUE APPROACH. *Academia Science Repository*, 4(05), 12-19.
6. Ruzikulovna, S. D. (2023). Analysis of the Level of Valuable Approach to Primary Class Students. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(4), 227-230.
7. Ruzikulovna, S. D. (2021). PRIMARY EDUCATION TEACHER AND STUDENT TEACHING ACTIVITIES AND SYSTEM OF PERSONAL VALUES. *European Scholar Journal*, 2 (7), 32-33.

8. Shabbazova, D. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARI SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SHAXSIY QADRYATLI YONDASHUV. MONOGRAFIYA. Termiz-2023. Interpretation and Researches, 1(1).

9. Tursunov J. TA‘LIMIY LUG‘AT YARATISH TAMOYILLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 384-393.

10. Jahongir T. TA‘LIMIY LUG‘AT YARATISH TAMOYILLARI. – 2022.

11. Butayorova M. K. THE IMPORTANCE OF POSITIVE RELATIONSHIPS IN THE FORMATION OF THE PERSONALITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS //Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – №. 11. – C. 121-125

12. Toshtemirovna R. G., Butayorova M. METHODOLOGICAL BASES FOR THE USE OF MODERN TEACHING TECHNOLOGIES IN THE LESSONS OF THE NATIVE LANGUAGE IN PRIMARY GRADES //International Journal of Pedagogics. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 88-91..

13. Butayorova M. X. O‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish-O‘quvchilar shaxsini shakllantirishning muhim omili sifatida //TA‘LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 11. – C. 113-118.

14. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent - 2009;

15. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tilshunoslik>;

16. <https://azkurs.org/samarqand-davlat-universiteti-v6.html?>